Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.11.2024 yildagi 804-son
5. Suyarov Zokirjon, Shahriyor Azimov. Yashil iqtisodiyot taraqqiyot va farovonlik garovi. Образование наука и инновационные идеи в мире https://scientific-jl.org/obr Выпуск журнала №-59 Часть–9_ Декабрь –2024 19.

AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINING EKOLOGIK VA IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI

Andijon davlat texnika instituti
3-kurs k53-guruh Buxgalteriya hisobi va audit
(tarmoqlar bo‘yicha) yo’nalishi talabasi
Rustamov Xurshidbek Marufjon o‘g‘li

Annotatsiya: Mazkur maqolada ishchi kuchlarini maqsadga muvofiq holda o‘z o‘rinlariga joylashtirish, va aholini ish bilan ta'minlash va uni amalga oshirish yo‘llarini qidirib topish hamda ularni joriy qilish bilan bog‘liq tadbirlarni belgilash ijtimoiy barqarorligini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari ifodalangan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar o‘z ifodasini topgan.

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti va istiqboli ko‘p jihatdan uning a'zolari bo‘lishi buyuk yaratuvchilik qudratiga ega bo‘lgan xalqning turmushi, yashash tarzini uning faoliyatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Binobarin inson uchun mehnat qilish, ish o‘rniga ega bo‘lishdek ulug‘ ne'mat yo‘q. Shunday ekan, aholini ish bilan ta'minlash boshqacha aytganda, ularning mehnat qobiliyatlari yashash sharoitlarini hisobga olgan holda, qonun bilan cheklangan mehnat faoliyatlarga jalb qilish aholining kam daromadli qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Ishchi kuchlarini maqsadga muvofiq holda o‘z o‘rinlariga joylashtirish, va aholini ish bilan ta'minlash va uni amalga oshirish yo‘llarini qidirib topish hamda ularni joriy qilish bilan bog‘liq tadbirlarni belgilash ijtimoiy barqarorligini ta'minlashning muhim omilidir.

Aholining ish bilan bandligini amalga oshirish o‘z navbatida bir qator masalalarni yechish va muammolarni hal qilishni hech bo‘lmaganda mazkur muammolarni oldini olishni takozo etadi. Ana shunday muammolardan biri ekologik muammodir.

Published: 24.05.2025
Cite this article: Rustamov Xurshidbek Marufjon o‘g‘li (2025). Aholini ish bilan bandligining ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillari. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/319
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Ma'lumki, inson tabiat borlig‘idan alohida yashay olmaydi. Tabiat borlig‘idan inson o‘zining tabiiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi. Kiyim, oziq-ovqat va toza havo, toza suv, quyinki barcha-barcha zaruriy ehtiyojni tabiat komponentlari bo‘lgan, havo, yer, suv, o‘simlik va hayvonot olamini oladi. O‘z navbatida insoniyat jamiyati moddiy ne'matlar yaratish omili bo‘lgan mehnatsiz mavjud bo‘la olmaydi. Mehnat esa u yoki bu darajada kishilar tomonidan tabiiy komponentlarga ta'sir etishdir. Mehnatning natijasi ba'zan insoniyat kutmagan natijalarga olib keladi.

Tabiat komponentlarning ish faoliyatiga putur yetadi: ular orasidagi tabiiy bog‘lanishlar uziladi; ekosistemalarning biomahsuldorligi pasayadi; o‘rmonzorlar kamayadi buning oqibatida erdagi kislorodning umumiy miqdori kamayib boradi va h.k. Bu tarixiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan ekologik jarayon bo‘lsa, o‘z o‘rnida bu jarayonlar kishilarning ijtimoiy ruhiy hamda maishiy turmush sharoitiga ham keskin salbiy ta'sir o‘tkazadi. Avvalo ularning salomatligiga so‘ngra esa ularning mehnati samarasi, unumdor yerlarning kamayishi hisobiga yoki erni meliorativ holatini muntazam buzilib borishi oqibatida ekin maydonlarining keskin kamayishiga, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifat va samaradorligining pasayishiga olib keladi, ekosistemadagi o‘zaro ta'sirlar ijtimoiy hayotda ham o‘zini aks ta'sirini ko‘rsatib, ma'lum maqsadda kishilarni turmush darajasiga, ularni ish bilan ta'minlanishiga va hatto ijtimoiy infratuzilmalar faoliyatini mutanosib yo‘lga qo‘yishga ham xalaqit berishi mumkin. Ijtimoiy ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta'siri hamma vaqt ham sezilarli darajada bo‘lgan. Biroq ilgari ishlab chiqarish jarayoniga ham juda kam mehnat vositalari jalb etilib inson va biosfera o‘rtasidagi munosabatlarda muvozanat unchalik buzilmagan. Er yuzida aholisining ko‘payishi va ilmiy texnika taraqqiyoti sharoitida keskin o‘zgarib ketgan atrof-muhit insonga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda.

Ayniqsa, insonning xo‘jalik yuritish faoliyati tufayli biosferaning o‘zgarishi juda katta tezlikda bormoqda. Insonning tabiiy jarayonlarga ana shunday munosabatda bo‘lishi orqali XXI asr boshlariga kelib, umumbashariy, mintaqaviy, mahalliy ekologik muammolar avj olib ketdi. Bular ichida: yoqilg‘i muammosi, energetika resurslarining kamayib borishi hozirni o‘zidayoq xavf solmoqda, tabiiy gaz va neft 90-100 yil, toshko‘mir 120 yilgacha yetishi taxmin qilinmoqda. Keyingi 100 yil ichida yer yuzining o‘rtacha harorati 0,5-1,0 gradusga ortganligi aniqlangan. Bu atmosfera CO2 miqdorining ortib borishi tufaylidir. Atmosferaning sanoat va avtotransportdan chiqqan chiqindilar bilan zaharlanishi shunday davom etsa, keyingi yillarda yer yuzining harorati 1,5-4,5 gradusga ortishi mumkin. Iqlimning bunday o‘zgarishi, cho‘llanish jarayonining jadallashuvini, yomg‘irliklar, geografik zaxiralar siljishini va dengiz okeanlar suv sathining ko‘tarilishini muzliklarning erishini tezlashtiradi.

Atmosferaga har yili odam boshiga 300 kg har xil chiqindilar chiqariladi. Bitta avtomobil bir yilda 100 kg zaharli gazlarni atmosferaga chiqaradi. Sanoatda keng ko‘lamda freonlardan foydalanish, azotli o‘g‘itlar, aviatsiya gazlari, atom bombalari portlatishlar atmosferada ozon to‘planishiga sabab bo‘ldi. Bu esa “ozon tuniqi”ning hosil bo‘lishiga olib keldi. .[5]

Bu omil nafaqat mutaxassislarni balki mamlakat aholisini ham tashvishga solmoqda. Bu salbiy holat esa yana insonning yaratuvchilik faoliyati ilm-fan yutuqlarining natijasi bilan bog‘liq ekanligini dalillar yaqqol ko‘rsatadi. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlaridan to Evropaga yetib kelguncha reaktiv samolyot sakkiz soat ichida 50-75 tonna kislorod sarflaydi. Shuncha miqdordagi kislorodni taxminan 25-30 ming gektar o‘rmon sakkiz soat ichida ishlab chiqarishi mumkin. Vaholanki bugungi kunda dunyo bo‘yicha yog‘ochni qayta ishlash sanoati bir soniyada 40 hektar o‘rmonni kesish qudratiga ega va shunday bo‘lmoqda. Atrof-muhitni ifloslanishi, ekologik tanglik jiddiy iqtisodiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda: aholining turli kasalliklarga chalinishi ortib borishi ijtimoiy ta'minot va sog‘likni saqlashga sarflanayotgan mablag‘larni o‘sib borishi, qishloq xo‘jalik, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarga yetarli darajada ega bo‘lmaslik shular jumlasidandir. 2021 yildagi statistic ma'lumotlarga qaraganda faqat havo sathini ifloslanishi tufayli ko‘rilgan zarar Respublikamiz miqyosiida 22,1 milliard so‘mni tashkil etgan. Uning asosiy qismi esa aholini kasallikka chalinish va uning profilaktikasi sarf-harajatlari bilan bog‘liq. Tabiatni muhofaza qilish, xususan, atmosfera ifloslanishidan saqlash tadbirlarini o‘tkazish moliyaviy mablag‘lar bilan bog‘liq ekanligini aytmaslik ilojimiz yo‘q. So‘nggi o‘n yil davomida havo hududlarini talab darajasidagi normativlarida saqlab turish uchun Respublikamizdagi unga daxldor tadbirlarga jalb qilinadigan investitsiyalar miqdorini 2-2,5 baravariyaga oshirish zarur bo‘ladi. .[6]

Taxminiy hisob-kitoblar shuni ko‘rsatmoqdaki, atmosferani himoya qilishga doir investitsiyalarni oshirish choratadbirlarining iqtisodiy samaradorligi ushbu masaladagi korxonalarni qayta jihozlashga qaraganda ancha yuqori bo‘lmoqda. Ammo istiqbolda ekologik va iqtisodiy samaradorlik bir oz pasayishi mumkin, bunga sabab bir tomondan tarmoq tizimidagi o‘zgarishlar, ya'ni mablag‘larning ko‘proq fondlar tashkil etuvchi tarmoqlarga (kimyo va rangli metallurgiya sohalaridagi tabiatni muhofaza qilish tadbirlari uchun) ajratilishi, ikkinchi tomondan atrof-muhitni himoya qilishga moslashtirilgan texnika va texnologiyalarni murakkablashuvi: masalan chiqindi gazlarni tozalovchi moslamalar sifat va samaradorligini oshirish uchun qo‘shimcha katta mablag‘lar bilan ta'minlash va ularni ayrimlarini chetdan keltirish bilan bog‘liq bo‘lishidadir. Ammo iqtisodiy samaradorlik nisbatan pasayishi atrof-muhitni himoya

qilishga doir investitsiyalarni cheklash yoki to‘xtatib qo‘yish uchun asos bo‘lmasligi kerak. Chunki bu boradagi iqtisodiy samaradorlikdan tashqari ajratilayotgan mablag‘lar ekologik va ijtimoiy samaralar berishi, ya'ni kishilar turmush sharoiti salomatligini saqlashga ham xizmat qilishini unutmishimiz kerak.

Respublikada mavjud kimyo zavodlari, hamda sanoat korxonalari qurilishiga katta mablag‘ sarflangan lekin ular Respublikada ekologik vaziyatni juda yomonlashtirib yubormoqda.

- Necha o‘nlab ajdodlarimizning mehnati bilan obod bo‘lgan, gullab-yashnab turgan vohalarda joylashganligi ayniqsa kishini g‘azablantiradi. Bu o‘rinda gap yangi yuqon kimyo zavodi, Chirq, Farg‘ona, Samarqand va Navoi kimyo korxonalari, boshqa ko‘pgina korxonalar haqida boryapti. Buning ustiga mana shunday azim korxonalar ham aslida dastlabki qayta ishlanadigan mahsulotlarni - nitron, asetat, kaprolaktamni ishlab chiqarishmoqdalar ki, ular ham O‘zbekistondan tashqariga yuborishga mo‘ljallangandir. O‘zbekistonda yetakchi tarmoq hisoblanib kelgan kimyo sanoatining “rivoji” keltirib chiqqan salbiy holatlar to‘g‘risida gapirmaslikni iloji yo‘q, chunki bu korxonalar mahsuloti ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitni va inson salomatligi uchun o‘ta zararli moddalar ajratib chiqarmoqda. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar bunday mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar qurishdan allaqachon voz kechishgan. Ular bunday korxonalarni Osiyoning bir qator chekka, qolov mintaqalarida katta mablag‘lar evaziga qurishni afzal ko‘radilar.

O‘zbekistonda kasalliklar ma'lum darajada chiqindilarning sifat tarkibi va sanoat turlariga bog‘liqdir. Chunonchi rangli metallurgiya korxonalari chiqindilari ta'sirida yurak, qon-tomir tizimi kasalliklari bilan og‘rish ko‘proq uchraydi. Qora metallurgiya sanoati korxonalari chiqindilari ta'sirida va uning energetika qurilmalari avvalo nafas organlari tizimiga ta'sir ko‘rsatadi. Kimyo va neft kimyosi sanoati korxonalari joylashgan hududlarda allergik kasalliklar keng tarqalgan. .[7]

Respublikamizda chiqindilardan foydalanish darajasi juda past. Ular faqat yer qatlamlari, yer osti va yer usti suvlarini ifloslantirish manbai bo‘libgina qolmay, balki, moddiy manbalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘qolishi hamdir. Tozalash inshootlarini yaratish va qo‘llash ma'lum qo‘shimcha xarajatlar bilan bog‘liq bo‘lib va albatta u ishlab chiqarilayotgan asosiy mahsulotning qiymatlashuviga olib keladi. Ma'lumki, okova suv va gaz (havo) chiqindilaridan zaruriy mahsulotlarni ajratib olish, hamma vaqt ham ularni maxsus ishlab chiqarishga nisbatan qimmatga tushgan va qo‘shimcha mehnatni sarf qilishga olib kelgan. Bunda holat, albatta, mahsulotning fond va material sig‘imini kamaytirish va eng asosiysi jonli mehnatning samaradorligini oshirishga

bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Chiqindilarni tozalash va zararsizlantirish tizimiga zaruratni anglash va uni joriy etish ekologik, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 3270 sonli Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” Qarori (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 25 aprelda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 2693-3).
4. Анисимова З.М. Развитие стратегического банковского менеджмента. Дис.канд. экон. наук: 08.00.10. - М, 2014
5. Harvard Business Review (HBR). Сборник «Менеджмент. Стратегии. HR: Лучшее за 2017 год» 5. Г. Бобоназаров. Мавкура ва экологик муаммолар “Мулокот”журнал: 2001 йил 4-сон 21 бет.
6. А.Шох. М.Шох Экономичиеские проблемо’ охрано’ атмосферного воздуха. Проблемо’ экономического роста и структурной политики в Узбекистане. Сборник научно’х статей. Т.1995г. стр 93-94.
7. О.Абдуллаев , З.Тошматов. Узбекистон экологияси : бугун ва эртага. Т. “Фан”, 1992й. 8. Никонец О.Е., Новикова А.А., Хохлова И.В. Стратегия коммерческого банка как концептуальная основа его деятельности // Научно-методический электронно’й журнал «Концепт». – 2016. – Т. 11. – С. 226–230.
9. Лаврушин О.И. Банковский менеджмент: Учебное пособие Ю.Н. Лапугин, Д.Ю. Лапугин. – М.: Эксмо, 2010.
10. (https://www.gazeta.uz/uz/2025/01/24/population-uz/

MAMLAKATIMIZDA SANOAT TARMOQLARIDA TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH BOSHQARISH MEXANIZMI

Nasibboyev Fazliddin Sirojiddinovich
“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi